SHAXSNING O‘RGANISH SO‘ROVNOMALARINI TATBIQ ETISH XUSUSIYATLARI

A.I. Rasulov

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti “Psixologiya” kafedrasi va O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi “Din psixologiyasi va pedagogika” kafedrasi professori, psixologiya fanlari doktori

REZYUME: *Ushbu maqola shaxs so‘rovnomalarni qo‘llash xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Muallif muammoni yoritishda shaxsning o‘rganish so‘rovnomalarini tarixiy rivojlanish bosqichlari, turlari va qo‘llanish mezonlariga e’tibor qaratgan. Shuningdek, talabalarda shaxsning o‘rganish so‘rovnomalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllanishidagi o‘ziga xosliklar empirik o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *shaxs, so‘rovnoma, psixodiagnostika, ko‘nikma, talaba*

REZYUME: *Dannaya statya posvyaщena izucheniyu svoystva primeneniya lichnostnыx oprosnikov. Pri vыyavlenii problemы, avtor obratil vnimanie na istoricheskie etapы razvitiya, vidы i kriterii primeneniya lichnostnыx oprosnikov. Takje empiricheski izucheno formirovanie znaniya i umeniya studentov rabotat s lichnostnыmi oprosnikami.*

Klyuchevыe slova: *lichnost, oprosnik, psixodiagnostika, umenie, student*

RESUME: *This article is devoted to the study of the properties of the application of personality questionnaires. In the detection of problem, the author drew attention to the historical stages of development, types and criteria of application of personality questionnaires. Also empirically studied the formation of knowledge and skills of students to work with the personal questionnaires.*

Key words: *person, question-book, psychodiagnostica, skill*

Psixologiya sohalarida shaxs psixologiyasi asosiy o‘rin tutishi bilan bir qatorda murakkab yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda shaxs muammosi bilan psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar keng ko‘lamda izlanishlar olib borgan bo‘lsalar-da, haligacha shaxs tushunchasini izohlovchi yagona va umum qabul qilingan izohga kelinmaganligini guvohi bo‘linadi. O‘z davrida shaxs muammosini tahlil etish borasidagi izlanishlar tufayli psixoanaliz (Z.Freyd), shaxs xususiyatlari nazariyasi (G.Ollport), shaxsning bixevoristik nazariyasi (L.Torndayk, Ye.Tolmen), shaxsga kognitiv yondashuv (S.Shexter, D.Kelli), shaxsga faktorli yondashuv (R.B.Kettell, G.Ayzenk), gumanistik yo‘nalish (A.Maslou, K.Rodjers, V.Frankl), analitik psixologik yondashuv (K.Yung), shaxsning simptokompleks xarakteristikasini izohlash (V.S.Merlin, B.G.Ananev), shaxs nazariyasi va modeliga strukturali yondashuv (K.K.Platonov), shaxsga faoliyat yondashuv (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn) va boshqa yondashuvlarning nazariy va amaliy xizmatlari kattadir [2,7]. Ushbu shaxs nazariyalar asosida psixologiya fanida muammoning amaliy o‘rganishga doir psixodiagnostik usullar va metodikalar yaratildi. Ushbu metodikalar guruhining yaqqol turlaridan biri shaxsning o‘rganish so‘rovnomalaridir. Shaxsning o‘rganish so‘rovnomalari psixologlarni tabiiy fanlardan o‘zlashtirgan psixodiagnostika metodlari hisoblanadi. Dastlabki so‘rovnomalarning ilk manbalari Charlz Darvinni ijodiy bilan bog‘liqligi qayd etilgan [8]. . So‘rovnomalarning ilk nazariy asosi introspeksiya metodi bilan bog‘liqdir.Tadqiqotchilar uzoq vaqt mobaynida inson ongi va shaxsni o‘rganishda asosiy metodi sifatida o‘zini o‘zi kuzatishni e’tirof etganlar. Shu bois, so‘rovnnomalarga o‘zini o‘zi kuzatishning bir shakli sifatida foydalanilgan. Ayrim o‘rinlarda ilk so‘rovnoma F.Galton tomonida ishlab chiqilgan degan ilmiy mulohazalar mavjud. U tomonidan yaratilgan so‘rovnomalardan shaxs sifatlarini emas, balki insonning o‘zini idrok etishi va aqliy timsollarining xususiyatlarini baholashda foydalanilgan [1,7,8].

XIX asrning oxirida so‘rovnomalar metodidan xotirani (A. Bine, J. Kurte), tafakkur tushunchasini (T. A. Ribo), ichki nutqni (J. Sen-Pol) va boshqalarni tadqiq etishda foydalandilar. Chop etilgan so‘rovnomalar respondentlarga taqdim etilgan, ba’zi holatlarda esa jurnallarda nashr etilgan. Shu tarzda so‘rovnoma metodi shaxsning sifatlarini o‘rganishda qo‘llanilmagan [1,2,8].

Zamonaviy shaxsni o‘rganish so‘rovnomalarining ilk ko‘rinishi amerikalik psixolog Roberto Vudvorts tomonida 1919 yilda yaratilgan bo‘lib, u «Shaxs haqida ma’lumotlar blanki» deb nomlangan [1,2,7]. Bu so‘rovnoma harbiy shaxslarni nevrotik simptomli holatlardan saralab olish uchun mo‘ljallangan. So‘ngra shaxslilik so‘rovnomalari shaxsni psixodiagnostik tadqiq etish metodi sifatida keng tarqaldi. Hozirgi kunda so‘rovnomalar psixodiagnostikaning keng qo‘llanilayotgan metodlaridan bir sanaladi.

Shaxsni o‘rganish so‘rovnomalari sub’ektiv diagnostik yondashuvning mumtoz namunasi sifatida qaraladi. So‘rovnoma-shaxs to‘g‘risida bilim olishning eng ishonchli usullaridan biri bo‘lib, tadqiqotchilar uzoq vaqtlardan buyon uning ob’ektivlashtirishga intilib kelimoqdalar.Bu esa shaxsni o‘rganish so‘rovnomalarining ishonchliligi va validligini ta’minlash talablarini o‘sib borayotganligidan dalolat beradi [2, 254].

Shaxsning o‘rganish so‘rovnomlarini bir qator mumtoz variantlar psixodiagnostik tadqiqotlarda keng ko‘lamda qo‘llanilib kelinmoqda: shaxs qirralarini o‘rganish so‘rovnomalari (masalan, R.B.Kettell so‘rovnomasi); tipologik so‘rovnomalar (masalan, G.Yu.Ayzenk so‘rovnomasi); motivlarning o‘rganish so‘rovnomalari (masalan, A.Edvards so‘rovnomasi); qiziqishlarning o‘rganish so‘rovnomalari (masalan, G.Kyuder so‘rovnomasi); qadriyatlarning o‘rganish so‘rovnomalari (masalan, D.Super so‘rovnomasi); ustanovkalarning so‘rovnomalari (masalan, L.Terstoun so‘rovnomasi) [2, 256].

Shaxslilik so‘rovnomalari sifatiga ko‘ra juda kuchli tafovutlanadi. Bu boradagi eng «muvaffaqiyatli» metodika sifatida MMPI so‘rovnomasi e’tirof

etiladi. U oxirgi 50 yillikda yaratilgan eng yuqori ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan metodikalar vakili hisoblanadi [8].

L.F.Burlachuk shaxsni o‘rganish so‘rovnomalari xususidagi izlanishlari asosida quyidagi mulohazani ilgari surdi:”Shaxsning o‘rganish so‘rovnomalari bilan ishlash mavjud bo‘lgan, mavjud va kelajakda shaxsni baholashning eng ommabop vositasi bo‘lib qoladi. Har bir mutaxassis-psixolog ushbu psixodiagnostik metodikalar o‘zida nimani taqdim etishini, ularning mazmunida nima yashiringanligini aniq bilishlari lozim”[2,255 b.]. Yuqoridagi ilmiy mulohaza aynan bizning tadqiqotimiz uchun nazariy asos sifatida xizmat qiladigan g‘oya hisoblanadi. Shaxs to‘g‘risida ma’lumot olishga yo‘naltirilgan psixodiagnostik usullari orasida - “Q”-ma’lumotlar olish usuliga alohida urg‘u beriladi [3,10-12].“Q”-ma’lumotlar- shaxsni so‘rovnomalar va o‘zini o‘zi baholashning boshqa usullari yordamida o‘rganish va ma’lumotlar olish usullari yordamida o‘rganishdir. “Q”-ma’lumotlar (“Questionnfire data”)ni ifodalashini anglatadi. Tuzilishining soddaligi va axborotlar olishining yengilligi “Q”-ma’lumotlarning (so‘rovnomalar, o‘ziga o‘zi hisobot berish, o‘zini o‘zi baholash shkalasi) shaxsni o‘rganishda markaziy o‘rin tutadi. “Q”-ma’lumotlar olish uchun metodikalarning soni ko‘p. “Minnesoti ko‘p qirrali shaxs ro‘yxati” (MMPI) [1,2,3,4,5], “Kaliforniya psixologik testi” (CPI) (3,72), “O‘n olti omilli shaxsning o‘rganish so‘rovnomasi (16PF)” [1,2,3,5,6], “Gilford-Simmerman testi” [1,3] shular jumlasidandir.

“Q”-ma’lumotlar instrumental yanglishishlar yetarlicha kuchli namoyon bo‘lsa-da, ammo ular “L”-ma’lumotlarga nisbatan yanglishishlar darajasi ancha past hisoblanadi.

“Q”-ma’lumotlardagi yanglishishlar sababli bilish va motivatsion xarakterga ega. Bilish bilan bog‘liq yanglishishlar xususiy shaxsni bilmasligi quyidagi sabablar bilan bog‘liqdir:

– tekshiruvchilarning intellektual va madaniy darajasini pastligi;
– introspeksiya va maxsus bilimlar, malakalarning yetishmasligi;

– ishonchsiz etalonlardan foydalanish (masalan, tekshiriluvchi o‘zi bilan barcha populyatsiya bilan emas, atrofidagi yaqinlari bilan solishtiradi) [3,10-11].

Bundan ko‘rinadiki, shaxsning o‘rganish so‘rovnomalari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish yuqori darajadagi nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishni taqozo etadi. Shu o‘rinda mutaxassis-psixolog shaxsni o‘rganish so‘rovnomalari bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi uchun yetarlicha psixodiagnostika fanining metodikalar bilan ishlash, ularni yaratish, modifikatsiyalashtirish talablariga doir bilimlarni o‘zlashtirgan bo‘lishlari talab etiladi. Buning uchun talabalar “Umumiy psixodiagnostika” fanining bir qatori bo‘limlari bo‘yicha nazariy bilimlarga ega bo‘lishlari inobatga olindi va tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Talabalar tajriba-sinovga qadar shaxsning o‘rganish so‘rovnomalari bilan ishlashga ko‘maklashuvchi 22 soatlik nazariy, 10 soatlik seminar va 18 soatlik so‘rovnoma yaratish, ularni tatbiq etishga mo‘ljallangan amaliy mashg‘ulotlarda ishtirok etdilar. Bu orqali ular psixodiagnostik tadbirlarni tashkil etish etikasi; psixodiagnostik tekshiruv va tadqiqotlarning xususiyatlari; psixodiagnostik metod va metodiklarning xossalari; psixodiagnostik metodikalarning ilmiyligini psixometrik mezonlari va qoidalari; test tuzish va ularni moslashtirish bosqichlari hamda talablari; shaxsning psixodiagnostik baholashga mo‘ljallangan so‘rovnomalar bilan ishlash va ularning natijalarini talqin etishga doir bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga erishdilar.

Ushbu tajriba-sinov vaqtida talabalarning mustaqil ravishda shaxsning o‘rganish so‘rovnomalarini yaratish; so‘rovnomalarni tadqiqot maqsadi va vazifasi, tadqiqot ob’ektiga ko‘ra tafovutlashlari, metodikalarni tatbiq etish, ularni psixometrik mezonlar bo‘yicha tekshirib ko‘rishga doir bilimlari va ko‘nikmalar 10 ballik tizim bo‘yicha baholandi. Baholanish tekshiriluvchilarning o‘zini o‘zi baholash shkalasi asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning empirik o‘rganish ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

Talabalarning shaxs so‘rovnomalarini tatbiq etishni bilishi va qo‘llay olishi bo‘yicha natijalari talabalarning uch o‘quv yillari bo‘yicha qiyosiy o‘rganildi. Olingan natijalarning o‘zaro farqlar tafovuti statistik mezonlar asosida aniqlandi.

1-jadval

Talabalarning shaxs so‘rovnomalari bilan ishlash bo‘yicha nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini baholash natijalari

№	Nazariy bilim va amaliy ko‘nikma mezonlari	2021-2022 o‘quv yili N=51		2023-2024 o‘quv yili N=45		2024-2026 o‘quv yili N=32	
		M	σ	M	σ	M	σ
1.	Psixodiagnostik metodikalarni qo‘llashning etikaviy qoidalari	7,20	1,14	6,93	1,05	7,23	0,68
		t=1,28		t=0,68		t=-014	
2.	Psixologik tadqiqot va tekshiruvlarni tashkil etish xususiyatlari	6,73**	0,91	7,31	0,84	6,79***	-0,14
		t=-2,75		t=-0,14		t=-3.21	
3.	“L”-ma’lumotlar	7,08	0,84	7,57	0,72	7,71	-0,21
		t=-0,66		t=-0,21		t=0.33	
	“Q”-ma’lumotlar.	7,12	0,68	7,24*	0,82	7,46	0,33
		t=1,60		t=2,33		t=-1,87	
	.“T”-ma’lumotlar	6,52	0,69	6,50	0,87	6,89**	-1,86
		t=0,15		t=-1,86		t=2,88	
4.	Shaxs so‘rovnomalarini	6,33**	0,85	6,86**	1,05	6,74***	2,88
		t=2,74		t=2,88		t=4,11	

	tuzish bosqichlari va qoidalarini bilishi						
5.	Shaxsni o‘rganish so‘rovnomasini namunaga asoslanib tuzish	6,51***	0,50	6,93***	0,88	6,92***	0,11
		t=4,34		t=4,13		t=-3,76	
6.	Shaxs so‘rovnomalari va testlarini moslashtirish bosqichlarini bilish va qo‘llay olishi	6,95	0,82	7,33***	0,79	7,66***	-0,76
		t=-1,92		t=-3,76		t=-3,7	
7.	Shaxs so‘rovnomalarini ishonchliligini ta’minlash qoidalarini bilishi va qo‘llay olishi	7,00	0,90	7,02	1,01	6,92	0,52
		t=-0,14		t=1,21		t=0,52	
8.	Shaxs so‘rovnomalarining validligini ta’minlash qoidalarini bilishi va qo‘llay olishi	6,46	0,58	6,51	0,78	6,76	-1,11
		t=-0,32		t=-1,13		t=-1,11	
9.	Shaxs so‘rovnomalarini qo‘llash va ularning natijalarini talqin etish	5,66	0,92	5,88	1,11	6,25	-3,14
		t=-1,40		t=1.41		t=-1,14	

Izoh: *p≤0,05; **p≤0,01; ***r≤0,001

Talabalarning natijalarida bir qator mezonlar bo‘yicha tafovutlanish kuzatildi. “Umumiy psixodiagnostika” fanining o‘quv dasturi 2011-2012 o‘quv

yilida ilk bora ta’lim muhitiga tatbiq etilayotganligi sababli, talabalarning ushbu o‘quv yilida erishgan natijalari qolgan ikki o‘quv yillarga nisbatan, ya’ni “psixologik tadqiqot va tekshiruvlarni tashkil etish xususiyatlari” bo‘yicha (6,73 va 7,31); “shaxs so‘rovnomalarini tuzish bosqichlari va qoidalarini bilishi”ga doir (6,51; 6,93; 6,92);” shaxs so‘rovnomalari va testlarini moslashtirish bosqichlarini bilish va qo‘llay olishi” (6,95; 7,33;7,66) mezonlari bo‘yicha tafovutlanishiga sabab bo‘lgandir. Tajriba-sinovda foydalanilgan boshqa mezonlar bo‘yicha talabalarning o‘quv yillari bo‘yicha ko‘rsatkichlarida statitistik farqlar aniqlanmadi. Talabalarning statistik farqlar aks etmagan ko‘rsatkichlariga ko‘ra ularning shaxsning o‘rganish so‘rovnomalarini tatbiq etish va ularni qo‘llashga doir bilim va ko‘nikmalari nisbatan teng kuchli shakllangan deyish mumkin. Bu esa talabalarning mutaxassis sifatida kasbiy tayyorgarlikni dastlabki bosqichidayoq metodikalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga erishganliklaridan dalolat bermoqda. Talabalarning so‘rovnomalar bilan ishlash ko‘nikmalari maksimal darajada namoyon bo‘lmadi. Ko‘nikmalar talabalar kasbiy kamolotning keyingi bosqichlarida va metodikalarni amaliyotda qo‘llashga to‘liq kirishgan vaqtidagina yaxshiroq ko‘rinish olishi mumkin.

Talabalarning so‘rovnomalar bilan ishlash ko‘nikmalarining eng past ko‘rsatkichi “shaxs so‘rovnomalarini qo‘llash va ularning natijalarini talqin etish” mezoni bo‘yicha kuzatildi. Bu holatga “Umumiy psixodiagnostika ” fani bo‘yicha beligilangan amaliy mashg‘ulotlarda talabalar tomonidan bajarilgan amaliy ishlarning natijalarini talqin etishdagi xulosalarida ham ko‘p bora duch kelingan. Bundan ko‘rinadiki, shaxsning o‘rganish so‘rovnomalarini amaliyotda qo‘llash va uni natijalarini psixologik talqin etish uchun talabalar shaxs nazariyalari, metodikalarning konseptual asoslarini ifodalovchi bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishlari lozim ekan. Demak, talabalarda shaxsning o‘rganish so‘rovnomalari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish ular kasbiy kamolotining uzluksiz qismiga aylanishi lozimdir.

АДАБИЁТЛАР

1. Анастази А., Урбина С. Психологичесикие тестирование –Спб: Питер, 2003.-688 с
2. Бурлачук Л.Ф. Психодиагностика. –Спб: Питер, 2002.-350 с.
3. Мелников В.М., Yамполский Л.Т. Введение в экспериментальнуюи психологиюи личности.-М.,1985.-319 с.
4. Общаяа психодиагностика/ Под.ред. А.А.Бодалева, В.В.Столина.-М.Изд.Универ., 2000.-440 с.
5. Пол Клайн. Справочное руководство по конструированиюи тестов/Введение в психометрическое проектирование.-Киев. 1994-283 с.
6. Психологическаяа диагностика: Учебник длуа вузов/ Под.ред.М.К.Акимовой, К.М.Гуревича.-СПб.:Питер,2008.-652 с.
7. Романова Е.С. Психодиагностика.2-е изд.-СПб.:Питер,2009.-400 с.
8. Yан тер Лак.Психодиагностика: проблемы содержаниуа и методов. Москва-Воронеж, 1996.-351 с.
9. www.mentalforce.ru.